

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.X.Raxmatova	
Naqshbandiya ta'limotida murosa falsafasiga munosabatning o'ziga xos xususiyatlari	98
X.A.Yulbarsova	
Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	102
A.B.G'ulomov	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning falsafiy jihatlari	107
B.Raxmanov	
Ibn Sinoning nochiziqli tafakkur asosidagi falsafiy qarashlarida sinergetik tamoyillar	110
N.A.Imomova	
Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillar va shart-sharoitlari	117
L.R.Usmonova	
Falsafiy komparativistika qadimgi dunyo madaniy muloqoti muammolari kontekstida	122
B.S.Ganiyev, U.S.Maksumova	
O'zbekistonda tadbirdorlik madaniyati dinamikasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari	128
A.Tashanov	
Zigmund Freyd va Erix Fromm falsafasida inson destruksiyasining ayrim talqinlari	135
A.A.Qambarov	
Ma'rifatli avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy tahlili	140
D.X.Gafforova, I.I.Rizayev	
O'rta asrlar O'zbekiston maqbaralarida tug'larning islom va tangrichilikdagi muqaddas timsoliy vazifalari	144
J.J.Shodiyev	
Insonlarni qadrlash va uni ma'naviy-axloqiy jihatdan qo'llab-quvatlashda din va falsafaning o'rni	150
D.O.G'afurov	
O'zbek milliy nikoh marosimlarining transformatsion xususiyatlari va uning ma'naviy qiyoferasi	155

SIYOSAT

R.B.Mirzabayev	
Yangi O'zbekistonda davlat xizmati sohasi takomillashuvi jarayonlari	159
R.A.Ikramov	
Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda huquqiy ta'lim-tarbiya va ommaviy axborot vositalarning o'rni	168
D.Sh.Maxkamov	
Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati	173
M.M.Safarov	
Yangi O'zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqbollari	177

ТАРИХ

A.Sharafiddinov	
Farg'onan viloyatining Andijon uyezdida paxtachilik va paxta sanoatining shakllanishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)	185
M.F.Rasulov	
O'zbekiston minoralari haqida ayrim mulohazalar (qadimgi va o'rta asrlar davri)	190
M.H.Isamiddinov, M.H.Hasanov, N.Qambarov	
2022-yili Quva arkida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari	196
F.E.Atajanova	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar	200
B.T.Mirzaqulov	
Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligida davlat boshqaruvi	204

NEYROLINGVISTIKANING NAZARIY ASOSLARI VA METODLARI

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МЕТОДЫ НЕЙРОЛИНГВИСТИКИ

THEORETICAL BASIS AND METHODS OF NEUROLINGUISTICS

Shaxobidiinova Shoxida Hoshimovna¹ Akbarova Zuxro Akmaljonovna²
Umarova Nargizaxon Rustamovna³

¹Shaxobidiinova Shoxida Hoshimovna

— Andijon davlat universiteti professori, filologiya
fanlari doktori

²Akbarova Zuxro Akmaljonovna

— Farg'ona davlat universiteti dotsenti, filologiya
fanlari doktori

³Umarova Nargizaxon Rustamovna

— Farg'ona davlat universiteti professori, filologiya
fanlari doktori

Annotatsiya

Mazkur maqolada til va ongning chambarchas bog'liqligi, nutq esa bu uzyiylikning ifodalovchisi ekanligiga urg'u berilgan. Zamnaviy jamiyatimizda neyropsixologiya, psixoterapiya, neyrofiziologiya kabi fanlar rivojlanib borar ekan, tilning miyadagi nutq o'choqlari bilan bevosita bog'liq ekanligi yildan-yilga o'z tasdig'i topmoqda. Maqolada neyrolingvistikating fan sifatida shakllanishida psixolingvistikating orni, bu borada tadqiqot olib borgan olimlarning turfa xil qarash va talqinlari hamda fanning bugungi kun ilm-fanida tutgan o'rnni izohlashga harakat qilingan.

Аннотация

В данной статье подчеркивается тесная связь между языком и сознанием, а речь является выражением этой связи. По мере развития в нашем современном обществе таких наук, как нейропсихология, психотерапия, нейрофизиология, год от года подтверждается их прямое отношение к речевым центрам головного мозга. В данной статье предпринята попытка объяснить роль психолингвистики в становлении нейролингвистики как науки, различные взгляды ученых, проводивших исследования по этой теме, и ее место в современной науке.

Abstract

This article emphasizes the close connection between language and consciousness, and speech is an expression of this connection. As the sciences such as neuropsychology, psychotherapy, and neurophysiology are developing in our modern society, it is being confirmed year by year that they are directly related to speech centers in the brain. In this article, an attempt was made to explain the role of psycholinguistics in the formation of neurolinguistics as a science, the different views of scientists who conducted research on this topic, and its place in today's science.

Kalit so'zlar: neyropsixologiya, psixoterapiya, neyrofiziologiya, nevrologiya, psixolingvistika, nutq buzilishlari, nutq va ong munosabati, retroaktiv inhibatsiya.

Ключевые слова: нейропсихология, психотерапия, нейрофизиология, неврология, психолингвистика, речевые расстройства, отношения речи и сознания, ретроактивное торможение.

Key words: neuropsychology, psychotherapy, neurophysiology, neurology, psycholinguistics, speech disorders, speech and consciousness relationship, retroactive inhibition.

KIRISH

Inson tili va ongi orasidagi munosabat tilshunoslar diqqatini mudom tortib keladi: bular bir-biriga yaqin ikki hodisami yoki bir narsaning ikki talqinimi? Fan tarixida bu muammo yechimi hamon izlanmoqda. Ammo til va ongning bog'liqligi shubhasiz va bu bog'liqlik tajallisi nutqdir. Nutq insonning ruhiy, aqliy tavsifini eng yaqqol ifodalovchisi hisoblanadi. Ifoda orqali tavsiflash va tashxislash fanning qator yo'naliishlari uchun asos bo'lib kelmoqda. Xususan, neyropsixologiya, psixoterapiya, neyrofiziologiya, nevrologiya, sixolingvistika... Inson nutqining tug'ilish va yashash joyi miya ekanligi borasidagi qarashlar ancha qadimiy bo'lismiga qaramay [1], miyadagi nutq o'choqlari va nutqiy ifodalar bog'liqligini o'rganuvchi fan – neyropsixolingvistika u qadar eski emas.

Inson miyasining turli kasalliklari nutqiy faoliyatga ta'sir o'tkazishini mutaxassis bo'lmaganlar ham yaxshi biladi. Turli fan vakillari ham bu masalaga alohida e'tibor bilan qaraydilar. Neyrolingvistika (grek. νεῦρον –'nerv', lot. lingua –'til') ning fan sifatida shakllanishi XX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi, biroq unga asos bo'lgan qarashlar yuz yildan ko'proq vaqt davomida shakllanib kelgan [2]. "Ushbu atamaning tarkibiy qismlari unda ikkita fanning bevosita bog'lanishiga ishora qiladi. Neyro (nevron) neyrolingvistikating neyronal bazasini tashkil etuvchi

TILSHUNOSLIK

miya haqidagi bilimlardan foydalanishni anglatadi. Atamaning boshqa qismi, aynan lingvistika bu fanga til hamda nutq haqida bilimlar kiritilishini ko'rsatadi" [3]. Tilning tizim – sistema sifatida tan olinishi bu tizimda muayyan buzilishlar, tizimdan chetga chiqishlar borligini ham nazarda tutadi. Neyrolingvistika ana shu chetlanishlar sabablarini ularni kelgusida bartaraf etish niyatida o'rganadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Miya jarohatlari hamda nutq buzilishlari o'tasidagi bog'liqlikka eng avvalo shifokorlar e'tibor qaratganlar. Fransiyalik vrach Mark Daks va Pol Brok, nemis psixonevropatolog Karl Vernikelarning XIX asr o'talarida olib borgan kuzatishlari miyaning aynan qaysi qismlari nutq uchun mas'ulligi borasidagi savollarga javob bo'ldi. Miyaning Brok va Vernike markazlari hamda ularni bog'lab turuvchi yoysimon nerv tolalari shikastlanishi nutqning turlicha motor hamda sensor buzilishlariga olib kelishi aniqlandi [2].

Nutqning psixologik tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlari bilan neyrolingvistika fani uchun baza yaratgan tadqiqotchilar orasida L.S.Vigotskiy va A.R.Luriyani ajratib ko'rsatish mumkin. Bu ikki olimning hamkorligi psixolingvistika va keyinroq neyrolingvistika fani yaralishiga nazariy asos bo'lgan. Ayniqsa, A.R.Luriya bu borada samarali ijod qilib "Travmaticheskaya afaziya" (rus tilida 1947 y., ingliz tilida – 1970 y.), "Vosstanovleniye funksiy mozga posle voyennoy travmi" (rus tilida 1948 y., ingliz tilida – 1963 y.), "Visshkiye korkoviye funksii cheloveka" (rus tilida – 1962 va 1969 yy., ingliz tilida – 1966 y.), "Osnovi neyropsixologii" (1973 y.) va "Neyropsixologiya pamyati" (1974 y.) kabi asarlar yaratgan [4].

A.R.Luriya birinchilardan bo'lib neyrolingvistikaning obyekti va predmetini belgilab berdi: neyrolingvistika psixologiya, nevrologiya va lingvistika chegarasida turuvchi fanning yangi sohasidir. U nutqiy faoliyatning miya mexanizmlari va miyaning lokal shikastlanishlarida nutqiy faoliyatda yuzaga keluvchi o'zgarishlarni o'rganadi.

L.S.Vigotskiy esa nutq va ong munosabatini bir butunlik sifatida ko'radi, ularni bir-biridan ajratish har birini zotiy xususiyatidan mahrum qiladi, deb hisoblaydi. Masalan, suv olovni o'chiradi. Biroq bu mutlaqo uning tarkibiy qismlari – kislород va vodorod tabiatidan kelib chiqmaydi. YA'ni tovush qobig'i va ongni bir biridan ajratish har ikkisining mohiyatini anglab yetishga halaqt beradi [5;43].

Tilshunoslikda olib borilgan qator tadqiqotlar neyrolingvistika bazasini yaratdi: lingvistika fanining axborot shakllanishi va kengaygan jumladan uning ichki mazmuniga bo'lgan yo'nalishni ochib berishga bo'lgan salmoqli qadamlari turli mamlakatlardagi atoqli tilshunoslar (F.de Sossyur, Boduen de Kurtene, Blumfeld va boshq.) tomonidan deyarli bir paytda tashlangan, biroq XX asrning 50- va 70-yillariga kelibgina ichki mazmun (yoki fikr) ning kengaygan nutqqa o'tish bosqichlarini butun boyligi bilan ochib bera olgan amerika transformatsion lingvistikasi namoyandalari (N.Xomskiy va uning maktabi a'zolari), generativ semantika deb ataluvchi yo'nalish tarafdarları (CH.Fillmor, Dj.Mak-Koli, Dj.Lakov), shuningdek, T.Biver, G.Klark ishlari va bir qator sovet lingvistlari (I.A.Melchuk, A.K.Jolkovskiy, Y.D.Apresyan, A.A.Leontyev va b.) ishlarida to'liq shakllangan[4].

Neyropsixolingvistika atamasining tadriji ancha qiziqarliroq. Neyrolingvistikani psixolingvistikaning bir uzvi sifatida ko'rish an'anasi mavjud. Shuningdek, bu ikkisining obyekti va predmetini farqlab ko'rsatish ham keng tarqagan: psixolingvistika til, tafakkur va ongning o'zaro aloqasini nevrologiyadan tashqarida o'rganadi. Neyrolingvistika miyaning nutqiy funksiyasini butun bir sistema sifatida, nutqning buzilish va yo'qolish holatlari (afaziya) ni sistemaning buzilishi sifatida o'rganadi [6].

Ko'rindiki, fan nomini bildiruvchi atama borasida munozaralar mavjud. K.F.Sedov esa psixolingvistika inson muloqot kompetensiyasini o'rganuvchi fan ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, ta'lim va tarbiya jarayoni bola miya tuzilishi bilan bog'liq olib borilishiga yo'nalgan neyropedagogikaning amaliy ehtiyojlaridan kelib chiqib, inson ongi va hissiyotlarini uzviylikda ko'rish zaruriyati neyro va psixolingvistikani bir butun fan yo'nalishi sifatida ko'rish zaruratini keltirib chiqardi. K.F.Sedov shularni hisobga olib, neyropsixolingvistika atamasini taklif etadi [7].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tilshunoslik o'z taraqqiyotining birinchi davrida faqat tabiiy tillarni rasmiy tahlil qilish usullariga ega edi. Strukturaviy tilshunoslik va transformatsion grammatika bunga til modellarini

yaratish, ularning qonuniyatlarini tavsiflash va tarkibiy xususiyatlarini katta aniqlik bilan o'rganishga imkon beradigan muhim texnikalar majmuini qo'shdi.

Tabiiyki, ushbu jarayonlarning tuzilishiga chuqurroq kirib borishni istagan mutaxassislarining psixologiyaga murojaat qilishlari bejiz emas edi. Bu borada K.Buhler (1934) va L.S.Vigotskiy (1934) asarları tadqiqotchilar e'tiborini jalg qila boshladi.

Psixolinguistik uchta asosiy manbaga ega, degan talqinlar mavjud bo'lib [3], birinchisi – Sepir-Uorfning tilning psixologikligi haqidagi tushunchasi, bu shaxsning milliy xarakteri va shaxsiyati asosida tavsiflanadi. Ikkinchisi – so'zlovchida jumla qanday tug'ilishini ochib beradigan generativ grammatika (N.Xomskiy va boshqalar). Uchinchi manba – nutq psixologiyasi nazariyasi bo'lib, u munosabatlar haqidagi ta'limot hisoblanadi, tafakkur va nutq, ularning qarama-qarshiligi, birligi va interpretatsiyasi (Vigotskiy), shuningdek, nutq faoliyati nazariyasi haqidagi (Vigotskiy, Shcherba, A.N.Leontyev va boshqalar) qimmatli fikrlar bayonidan iborat.

Kognitiv nevrolog Brenda Rappling tadqiqotlari miya tilni qanday ishlashini va unga miya shikastlanishi qanday ta'sir qilishi mumkinligini tushunishga qaratilgan. U til ishlab chiqarishni va til buzilishlarining asabiy asoslarini tushunishga katta hissa qo'shdi [8;4]. Olim va doktor Dronkers miya shikastlanishi, xususan, afaziya natijasida kelib chiqadigan til kasalliklari bo'yicha bajargan ilmiy ishi bilan tanilgan. Uning tadqiqotlari tilning neyron substratlari va ularga turli xil miya lezyonlari qanday ta'sir qilishi mumkinligi haqidagi tushunchamizni rivojlantirishga yordam berdi.

An'anaviy neyrolinguist bo'lmasa-da, Stiven Pinker til, bilish va miya o'tasidagi munosabatni o'rgangan taniqli kognitiv psixolog va tilshunoslardan biri bo'lib, uning ishi tilning evolyutsiyasi va tabiatini to'g'risida qimmatli tushunchalarni taqdim etdi. Ushbu tadqiqotchilar va boshqa ko'plab odamlar neyrolinguistikha haqidagi bilimlarimizni oshirishda davom etmoqdalar, nutq va tilda qiyinchiliklarga duch kelgan shaxslar uchun terapiya va aralashuvlarni rivojlantirishga hissa qo'shmoqdalar. Ularning ishlari til va miya o'tasidagi murakkab munosabatlar haqidagi tushunchamizni kengaytirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Shu jumladan, A.Luriya nutqni shakllantirishning asosiy bosqichlarini aniqlash uchun bir nechta bosqichli metodlarni taklif qiladi [4].

Ushbu muammoni hal qilish uchun biz miyaning mahalliy lezyonlari bo'lgan bemorlarni neyropsixologik tekshirishda o'zini oqlaydigan quyidagi tavsiflangan usullardan foydalandik.

Biz kerakli materialni yig'ishni bemorning spontan nutqini klinik kuzatish bilan boshlaymiz, ya'ni biz uning istaklari paydo bo'lgan savollarni qanday ifoda etishini va agar shunday bo'lsa, u boshqalar bilan har qanday xabarlarni baham ko'rishga harakat qilishini ko'rib o'tamiz. Ushbu kuzatuvlarda bemorda nutq aloqasi uchun tegishli motivlarning mavjudligi yoki yo'qligi namoyon bo'lishi mumkin. Bunday o'z-o'zidan nutqning yo'qligi bemorning energiya ohangi pasayishini yoki kerakli motivatsiya yo'qligini yoki beqarorligini ko'rsatishi mumkin.

Ushbu hodisaning tabiatni ikkinchi bosqichda aniqroq namoyon bo'ladi. Bunda bemorning dialogik nutqi o'rganiladi, unga "tegishli javoblarni berishi kerak" mazmunidagi savollar beriladi. Tadqiqotchi avvalo bemorning nutq faoliyatini aniqlaydi va uning buzilishiga xos xususiyatlar bilan tanishadi va ikki turdag'i savollardan foydalanishi mumkin bo'ladi. Ulardan birida bemorning javobi allaqachon savol mazmuniga kiritilgan bo'lib, bemor savolni ijobjiy takrorlashi yoki uning mazmunini inkor yetishi mumkinligi ko'zda tutiladi. Masalan, Bugun tushlik qildingizmi? so'rog'iga bemor: – Ha, men bugun tushlik qildim yoki: – Yo'q men bugun tushlik qilmadim tarzida javob beradi. Bu savol orqali bemordan batafsil xabarni mustaqil ravishda yaratish talab qilinmaydi.

Yana boshqa turdag'i savol esa tayyor javobni o'z ichiga olmagan va faqat axborot uzatishning yangi rejasini yaratish, yangi aloqalarni yopish va kerakli bayonotni shakllantirish zarurligini ko'rsatadi (– Bugun ertalab nima qildingiz? – Bugun ertalab men shifokor bilan edim; – Men sayrga chiqdim va boshqalar. Shifokor: Siz qanday kasalliklarga bilan og'rigansiz? – Men qizamiq, qizilcha va boshqa kasalliklarni boshdan kechirdim). Kuzatuvning bu bosqichida axborot motivining mustaqil paydo bo'lish zarurati chiqarib tashlanadi va tadqiqotchi bemorning, bir tomonidan, avtomatik tarzda savollarga javob berishini, boshqa tomonidan esa, mustaqil bayonotning semantik sxemasini yaratish qobiliyatini saqlab qolganligini tekshirishi mumkin bo'ladi.

Tadqiqotning keyingi – uchinchi bosqichi bemorning takroriy nutqini o'rganishdir. Ushbu bosqichda bemorga individual tovush komplekslarini, so'zlarni, so'zlar seriyasini va iboralarni takrorlash taklif qilinadi. Mazkur tajribalar tizimi bemorning sodda, reproduktiv nutq qobiliyatini qay-

TILSHUNOSLIK

darajada saqlab qolganligini ko'rsatib berishga yaqindan yordam beradi, bitta kompleksning (so'zlar, iboralar) tarkibiy qismlar seriyasiga (zanjirlariga) o'tishda unga taqdim etilgan nutq materialini takrorlash qobiliyati buzilishiga yo'l qo'ymaydi. Va yana ushbu tajribada nutq xabarlarini kodlash jarayonini yanada chuqurroq o'rganish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan ikkita holat osongina aniqlanishi mumkin. Bir tomondan, bitta nutq kompleksini osongina takrorlagan bemor bir qator nutq birliklarini takrorlashga o'tishda ularning tartibini saqlab qolishning iloji yo'qligi va ba'zi so'zlarda o'zaro qayta faol tashkillanish mavjudligi sababli jiddiy qiyinchiliklarga duch kelinishi ham mumkin. Bunday hollarda bemorni takrorlashi uchun taqdim etilgan qator (jumla) ning faqat bir qismidan (birinchi yoki oxirgi) ba'zi parchalarni takrorlashning ketma-ketlikda amalga oshirilishini osongina kuzatish mumkin. Boshqa tomondan esa, tadqiqotchi aynan shu namuna asosida bemorda paydo bo'lgan izlarning patologik inertligi hodisalarini aniqlay oladi, natijada, u bitta qisqa ovozni yoki leksik birliklarni muvaffaqiyatli takrorlay oladi, ammo boshqa tovush yoki leksik birliklarga, yoki ularning o'zgartirilgan tartibiga o'tishga qodir bo'lmaydi. Oddiy bo'limgan ushbu patologik sharoitlarning ikkalasi ham xabarni kodlash jarayonlarini osongina buzishi mumkinligini osongina aniqlashni ta'minlaydi.

To'rtinchi metod bemorning kerakli leksik birliklarni (so'zlarni) topish jarayoni qanchalik saqlanib qolganligini va u bunday topishda qiyinchiliklarga duch kelganmi yoki kerakli leksik birlikni yon (parafaziya) bilan almashtirganmi yoki yo'qligini o'rganishdan iborat.

Nutq xabarlarini kodlashni o'rganish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan so'zlarni eslab qolish tajribasi ikkita tubdan farq qiluvchi tajribalar seriyasini o'z ichiga oladi. Ulardan birida bemorga unga ko'rsatilgan narsalarni qayta ko'rsatish yoki harakatlarni bajarish taklif etiladi (agar vizual predmetlar mavjud bo'lsa, ko'rsatilgan narsalarni yoki ularning rasmlarini nomlash, aks holda esa, tana qismlarini nomlash); ikkinchi tajribada esa tadqiqotchilar izchil bayon qilish jarayonida bemorning so'zları qanchalik osonlik bilan paydo bo'lishini o'rganadilar.

Ikkala tajriba seriyasi ham tubdan farq qiladi. Ulardan birinchisida subyekt so'zni paradigmatic tizimdan (iyerarxik umumlashmalar yoki tasniflar tizimidan) ajratib nomlaydi; ikkinchi holda u buni sintagmatik aloqalarga tayanib, boshqacha qilib aytganda, og'zaki nutq kontekstida so'zlarni takrorlaydi. Yuqorida keltirilgan ikkala tajribada turli holatlardagi nutqiy ifoda qiyinchiliklarni aniqlay olish va shu bilan kerakli leksik birliklarning paydo bo'lishiga asos bo'lgan turli yo'llarni ko'rsatish qanchalik muhimligini yana bir bor ko'rib chiqish imkoniyati yaratiladi.

Material to'plashning beshinchi bosqichida bemorning mustaqil monologik nutqini tahlil qilishga o'tiladi.

Ushbu tajribaning eng oddiy variantlarida rejani mustaqil ravishda yaratish zarurati chiqarib tashlanadi va muammoni muvaffaqiyatli hal qilishning asosiy sharti sifatida tayyor nutq bayonotining sxemasini yaratish, uni bat afsil hikoya tarzida aks etirish imkoniyatidan foydalaniladi. Aynan shunday holatlarda o'qilgan hikoyaning mazmunini yoki rasmida aks etgan hikoyani yetkazish mumkin bo'ladi. Birinchi holatda barcha tarkib allaqachon tayyor shaklda berilgan va mavzudan faqat uni dekodlash va keyin uni mufassal axborot ko'rinishida qayta tiklash talab qilinadi. Ikkinci holatda kerakli ma'lumotlarni tahlil qilish va muhim bo'g'inlarni ajratish vazifasi kuchaytiriladi, tadqiqotchi olingan ma'lumotlarning muhim bo'g'inlarini ajratish jarayoni qanday shakllanganligini va bemorning ushbu tarkibni bat afsil nutq bayonotiga kiritish imkoniyati qanchalik saqlanib qolganligini kuzatish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'ldi.

Mustaqil monologik nutqni shakllantirish bo'yicha kuzatuvlar eksperimentlarning so'nggi – oltinchi bosqichi bilan yakunlanadi, unda bemorga ma'lum bir mavzu bo'yicha (masalan, "Qachondir" mavzusida) bat afsil og'zaki tarzda insho yozishni taklif qilishdir [9].

Monologik nutqni o'rganishning barcha ko'rsatilgan variantlari bilan olingan ma'lumotlarga oid qiyosiy tahlil nutq jarayonidagi qaysi bo'g'inlarda kamchiliklar borligini aniqlashga imkon beradi (mustaqil ravishda fikrlarini tizimlashtirish, materialni faol tahlil qilish va dastlabki semantik sxemani ajratib ko'rsatish, asosiy nutq sxemasini yaratish).

Faqatgina bunday bat afsil texnikalar to'plami va olingan barcha ma'lumotlarni taqqoslash nutqni kodlashni amalga oshiradigan mexanizmning qaysi tarkibiy qismi buzilganligi, nuqson motivning zaifligi yo yo'qligida namoyon bo'ladi, g'oya yoki fikrni yaratish, yoki uni bayon etish qiyinmi, degan xulosaga kelishga imkon beradi. Neyrolingvistika til sohasi sifatida til va nutqiy ko'nikma hamda malakalarni o'zlashtirish, til va nutqdan foydalanish jarayonini o'rganar ekan, bu

jarayonda miyada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlar va buzilishlarni chucherroq o'rganishga kirishgan tadqiqotchilar soha oldidagi vazifalar ko'lami nazarda tutilganidan ko'ra kengroq ekanligini aniqladilar.

Natijada, nutq buzilishi va nutqiy qobiliyatning yo'qolishini o'rganishda fiziologik va nevrologik tahillarning o'zigina yetarli emas. Turli xususiyatlarga ega nutqiy buzilishlar miya yarim sharlarining funksional assimetriyasi va uning inson ruhiyatidagi aksi bilan bog'liq holda yuzaga chiqayotganligini hisobga olib, bu jarayonga chuqur psixologik yondashuv ham zarur ekanligi haqida ko'plab manbalarda ma'lumotlar paydo bo'la boshladi.

Bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar ko'lami nutq patologiyalarini tashxislash va tuzatish muammolarini psixologik bilimlar prizmasi bilan hal etish zaruriyati borligini ko'rsatdi. Inson muloqotining tabiatni, til va ong mexanizmlarining shakllanishi tafakkur asosi bo'lgan kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog'liqidir. Ko'pincha, miya shikastlanishlarida ong mexanizmlarining buzilishi nutqiy signallar bilan yuzaga chiqadi. Ammo ko'plab bolalarda kuzatilayotgan o'qish va yozishning buzilishi bilan bog'liq holatlar alohida belgilari bilan nutqda kuzatilmaydi.

Disleksiya, disgrafiya atamalari ostida o'rganiluvchi bu kabi holatlar kichik yoshdagi bolalarda kognitiv jarayonning sekinlashuvi va kommunikativ kompetensiyaning rivojanishi uchun ham to'sqinlik qiladi. Bu esa sohada olib borilayotgan amaliy tajribalar bir necha fan doirasida bo'lishi kerakligini taqozo etadi. Tadqiqotchilar tomonidan turli yoshdagi inson miya tuzlishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq masalalarga jiddiy e'tibor qaratish amaliy zaruriyat sifatida neyropsixolingvistika atamasining paydo bo'lishiga olib keldi.

Yaqin yillargacha neyrolingvistikating ko'plab mutaxassislar tomonidan mustaqil fan maqomini olmaganligi ta'kidlab kelindi. Bu kabi xulosalar ayni shu sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot xulosalarida haligacha umumiy qarashlarning yo'qligini ham ko'rsatadi.

A.R.Luriyaning yuqorida keltirib o'tilgan fikrlariga tayanilsa, ya'ni nevrologiya, psixologiya va lingvistika kabi uchta fan chorrahasida paydo bo'lgan sohani neyropsixolingvistika deb atash mantiqan to'g'ri bo'ladi. Bunda, eng avvalo, ilmiy tadqiqot sohasi sifatida neyropsixolingvistikating tadqiq obyekti va vazifalarini aniq belgilab olish zarur bo'ladi.

XULOSA

Til va nutqiy faoliyatning miya mexanizmlari bilan bog'liqligi, tilning miyada ifodalanishi, tafakkur psixologiyasi, shaxsiyat, etnopsixolingvistika, kognitiv jarayonlarda nutq bilan bog'liq buzilishlar va shu kabi qator muammolarni ko'rib chiqish, uning terminologik apparatini shakllantirish zaruriyati ham soha oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Chunki bu sohani tashkil etuvchi uchta yirik fan sohalarini terminologik jihatdan katta hajmga ega bo'lgan sohalardan ajratish zarur.

K.F.Sedovning fikriga ko'ra ham, turli tadqiqotchilar neyrolingvistikating boshqa fanlar orasida tutgan o'rni, predmeti va vazifalarini turlicha belgilaydilar. Tadqiqotchi neyrolingvistika va psixolingvistika o'ttasida (ta'rif bizni) paydo bo'lgan neyropsixolingvistikaga bag'ishlangan adabiyotlarning kamligini sohaning ilmiy jihatdan yetuk emasligi ko'rsatkichi sifatida qaralishi kerak, deya ta'kidlaydi [7;4].

Neyropsixolingvistikating neyrobiologiya, neyropsixologiya, neyrofiziologiya va nevrologiya kabi fanlar bilan aloqasi bu sohani yirik fanlar tarmog'iga mustahkam bog'laydi. Ma'lumki, miya faoliyatining neyrofiziologik mexanizmlari tilni o'zlashtirish va nutq faolligini ta'minlashga qaratilgan. Yosh, lekin ilmiy soha sifatida shakllanayotgan neyropsixolingvistika bu jarayonlarda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan yirik muammolar yechimini, ya'ni klinik amaliyotlarni lingvistik va psixologik tashxislar bilan birga o'tkazish samarali natijalar berishiga ishontiruvchi tadqiqotlar bilan boyishi lozim.

Bu tadqiqot mavzusining murakkabligi, usul, vosita va vazifalarning hali nomukammal hamda noaniqligi sohada tadqiqot olib borishni istaganlar uchun bir talay qiyinchiliklarni tug'dirishi tabiiy. Shunday bo'lishiga qaramay, bularning barchasi neyropsixolingvistikating rivojanishiga ma'lum darajada turtki bo'imqoda. Sohaning asosiy muammo va vazifalari hozircha yakuniy yechimdan uzoq. Biroq olib borilishi ko'zda tutilayotgan amaliy tajribalar, yangi faktlar asta-sekin to'planib, yangi farazlarning paydo bo'lishi va neyropsixolingvistik ilmiy tushunchalar ko'lami yanada kengayishi shubhasiz.

TILSHUNOSLIK

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Фефилов А.И. Феномен языка в философии и лингвистике. Учебное пособие. – Москва: Флинта, 2014. – 224 с.
2. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.
3. Визель Т.Г. Прикладная нейролингвистика.–Москва: Московский институт психоанализа, Когито-Центр, 2020. – 339 с.
4. Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики. Изд. 3.УРСС. 2009. 256с. ISBN 978-5-397-00734-4// <https://urss.ru/cgi-bin/db.pl>
5. Выготский Л.С.Мышление и речь. . — Москва, 1934. — 362 с.
6. В чем отличие нейролингвистики от психолингвистики?// <https://spravochnick.ru/vopros/2758/>
7. Седов К.Ф. Нейропсихолингвистика. – Москва: Лабиринт, 2007. – 224 с.
8. Rommetweit R. Words, meanings and messages: theory and experiments in psycholinguistics. – New York,1968.
9. Luria A.R. Problems and facts in neurolinguistics. "Intern,soc.sci.j.", v.19. pp 51.